

SAMARQAND VILOYATIDA OLIY TA'LIM TIZIMI

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish orqali yoshlarni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash hamda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan innovatsion texnologik yangilanishlar – eng zamonaviy bilim va malaka talablarini o'zida jamlagan yetuk mutaxassis, o'z ishiga vijdonan yondashadigan xodim bilan ta'minlansa samarasini beradi.



Buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohatchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur.

2020-2021- o'quv yilida Samarqand viloyatida hozirgi zamon talablariga javob beradigan malakali yosh kadrlarni tarbiyalash uchun 12 ta oily ta'lim muassasalari (ulardan 5 tasi universitet) faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 2 tasi hududiy filial hisoblanadi.

Ma'lumot uchun:

Oliy ta'lim – umumiy o'rta ta'lim , o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga shakllanadi hamda 2 bosqichga ega;


- ***Bakalavriat*** – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir;
- ***Magistratura*** – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oily ta'limdir.



Oliy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari


2020-2021- o'quv yilida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida 54 827 nafar talabalar ta'lim olmoqdalar. Ularning 23 571 nafari qizlar .

Samarqand viloyatidagi oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar soni dinamikasi, (o'quv yilida, nafar)



Samarqand viloyati bo'yicha 2020- yilda 7165 nafar talaba oily ta'lim muassasalarini bitirdilar. Ulardan kunduzgi bulimda 6928 nafar, sirtqi bulimda 237 nafar talaba tashkil etdi.

2019- yilda oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari soni dinamikasi (o'quv yilida, nafar)



Samarqand viloyatida Oliy ta'lim bakalavriat bosqichining asosiy ko'rsatkichlari

2020-2021- yilida oily ta'lim muassasalarining bakalavriatidagi talabalar soni 52 687 nafardan iborat. Ularning 41 299 nafari kunduzgi bo'limda, qolgan 9 656 nafari sirtqi bo'limda ta'lim olmoqdalar.




Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalarining 8 855 nafari davlat granti bo'yicha o'qimoqdalar. Ularning 8 777 nafari kunduzgi, qolgan 72 nafari sirtqi bo'lim va 6 nafari kechki bo'lim talabalari hisoblanadilar.


Yangi o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga jami 17 772 nafar talaba qabul qilindi. Ularning 13 876 nafari kunduzgi, 3 110 nafari sirtqi, 766 nafari kechki bo‘lim talabalari hisoblanadilar.

2020- yilda bakalavriat bosqichini 6595 talabalar tamomladilar. Ulardan 1816 nafari davlat granti bo‘yicha ta’lim olgan talabalar hisoblanadi. Bitiruvchi talabalarning 2 353 nafar qizlardan iborat.

Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga qabul qilingan va bitirgan talabalar soni (o‘quv yilida, nafar)



Qabul qilindi -17 772



Bitirdi - 6 595



2021- yilda viloyatdagi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichini 8 459 nafar talaba bitirishi kutilmoqda. Ularning 8 022 nafari kunduzgi bo‘lim, qolgan 437 nafari sirtqi bo‘lim talabalari sanaladi.

Oliy ta’limning Magistratura bosqichi

2020-2021- o‘quv yilida Samarqand viloyatidagi oliy ta’lim muassasalarida magistratura bosqichlari mavjud. Ularda 2 140 nafar talabalar kunduzgi bo‘limda ta’lim olmoqdalar. Magistrarning 780 nafari davlat granti bo‘yicha o‘qimoqdalar. Jami magistratura bosqichidagi talabalarning 953 nafari qizlardan iborat.





**O'g'il bolalar
1187**



**Qiz bolalar
953**



**Jami
magistrlar
2140**

Yangi o'quv yilida magistratura bosqichiga 1143 nafar talabalar qabul qilindi. Ulardan 485 nafari, yani davlat granti bo'yicha ta'lim olishga sazovor bo'ldilar. Magistrarning 520 nafari qizlar tashkil etadi.

2020-yilda 570 nafar talaba oily ta'lim muassasalarida magistratura bosqichini bitirdilar. Ularning 182 nafari davlat granti bo'yicha tamomladilar. Jami bitiruvchilarning 249 nafari qizlardan iborat.

Joriy 2021-yilda oliy ta'lim muassasalarini 972 nafar magistrlar bitirishi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun:

Oliy ta'lim muassasalari talabalari soni – oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va o'quv yili boshida ro'yhatda turganlar.

Oliy ta'lim muassasalarini bitirganlar - ta'lim kursini to'liq tugatgan va tegishli ma'lumot (mutaxassislik) ga ega bo'lgan shaxslar soni.





Samarqand viloyatida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatmmoqda



Universitet - oliy va undan keyingi ta'lim uchun ta'limni bir necha yo'nalishda beradi, turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi, fanning turli yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi, ilm sohasi bilan chambarchas bog'liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Institut – oliy ta'limdan keyingi o'quv dasturlarini bajarishni ta'lim va fanning ma'lum bir me'yorida amalga oshiradi. Mutaxassislarni ma'lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi, fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.






Oliy ta'lim muassasalaridagi jami 54 847 nafar talabalardan 45 225 nafari o'zbek tilida, 7 846 nafari rus tilida, 552 nafari tojik tilida ta'lim olmoqdalar.

2020-2021- o'quv yilida Samarqand viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarga 3 341 nafar (shtatdagi xodimlar) professor-o'qituvchilar ta'lim bermoqdalar. Bundan tashqari 579 nafar pedagog-xodimlar o'rindosh bo'lib faoliyat olib bormoqdalar. Jami pedagog xodimlardan 1 364 nafari ayollar tashkil etadi.

Pedagog-xodimlardan 242 nafari fan doktori, 690 nafari fan nomzodi ilmiy darajasiga ega, hamda 145 nafari professor, 556 nafari dotsent ilmiy unvonini olishga sazovor bo'lgan.



Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida 205 nafar pedagog-xodimlar *informatika va kompyuter texnologiya fanidan* ta'lim bermoqdalar. Ushbu muassasalarda 140 ta kompyuter sinflari mavjud bo'lib, ular 3 025 ta kompyuter, 10 ta video-proektor, 8 ta elektron va 8 ta interaktiv doskalar bilan jihozlangan.





Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Telefon: 0366-235-33-16

